



# O'ZKIMYOSANOAT

AKSIYADORLIK JAMIYATI

2024-yil 14-avgust

## **“O'zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi 2024-yil 5-sentabr kuni o'tkaziladi**

### **“O'zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlari diqqatiga!**

“O'zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi 2024-yil 5-sentabr kuni soat 12:00 da masofadan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda elektron ovoz berish “eVote” platformasi orqali o'tkaziladi.

### **KUN TARTIBI:**

1. “O'zkimyosanoat” AJ aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi sanoq komissiyasi a'zolari soni va shaxsiy tarkibini tasdiqlash.
2. “O'zkimyosanoat” AJ aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi reglamentini tasdiqlash.
3. “O'zkimyosanoat” AJ ustav kapitalini kamaytirish.
4. “O'zkimyosanoat” AJ ustaviga o'zgartirish kiritish orqali uni yangi tahrirda tasdiqlash.
5. “O'zkimyosanoat” AJ aksiyalar chiqarilishi to'g'risidagi qaroriga o'zgartirish kiritish va aksiyalar chiqarilishi to'g'risidagi qaroriga kiritiladigan o'zgartirishlar matnini tasdiqlash.
6. “O'zkimyosanoat” AJning boshqaruvi a'zolariga ish haqi va rag'batlantirish to'lovlari to'g'risidagi nizomini yangi tahrirda tasdiqlash.

Umumiy yig'ilish o'tkazilishi haqida xabar qilish uchun aksiyadorlar reyestrini shakllantirish sanasi: 2024-yil 14-avgust holatiga.

Umumiy yig'ilishda qatnashish huquqiga ega aksiyadorlar ro'yxati 2024-yil 28-avgust holatiga shakllantirilgan aksiyadorlar reestriga asosan tuziladi.

Umumiy yig'ilish qatnashchilarini ro'yxatga olish internet tizimi orqali elektron ovoz berish xizmatidan (<http://evote.uz/>) foydalangan holda, 2024-yil 5-sentabr kuni soat 11:00 da boshlanib, soat 12:00 gacha davom etadi.

Umumiy yig'ilishda qatnashish uchun aksiyadorlar o'zi bilan pasport, aksiyadorlar vakillari esa – O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan ishonchnoma bilan

qatnashishlari so'raladi.

Umumiy yig'ilishda ishtirok etish va ovoz berish tartibi Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi tomonidan e-Vote elektron ovoz berish xizmatidan foydalanish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.

Umumiy yig'ilishni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilayotganda aksiyadorlarga taqdim etilishi lozim bo'lgan axborot (materiallar) bilan tanishish uchun quyidagi manzil va telefon raqamlariga murojaat qilishingiz mumkin: Toshkent shahri Navoiy ko'chasi, 38-uy, telefon: +(99878) 140-74-97, 140-74-98. E-mail: info@uks.uz

**"O'zkimyosanoat" AJ kuzatuv kengashi**

**source:**

*"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati*

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/corporate/calendar/meeting-20240905>